



O.GENRINING “THE LAST LEAF” ASARIDA UCHRAGAN LEKSIK SEMANTIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI.

XUSHBOQOVA O`G`ILSHOD O`ROL QIZI

Termiz davlat universiteti talabasi .

Abdullayevasafargul7@gmail.com.

+998904191503

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amerikalik yozuvchi O.Genrining “The Last Leaf” asarida uchragan leksik semantik transformatsiyalar haqida soʻz boradi. Shu bilan birgalikda , tilshunos olimlarning “transformatsiya” tushunchasiga oid yondoshuvlar tahlili keltirilgan.

KALIT SOʻZLAR: leksik transformatsiya, konkretlashtirish, antonomik tarjima

KIRISH.

Tarjima deb, biror bir asar yoki matnni bir tildan ikkinchi tilga til me`yorlarini buzmaganda o`zgartirishga aytiladi. Asl birliklardan tarjima birliklariga o`tishni amalga oshirish mumkin bo`lgan transformatsiyalar tarjima(tillararo) transformatsiyalar deb ataladi. Tarjima o`zgarishlari mazmun rejasiga ham, ifoda rejasiga ham ega bo`lgan lingvistik birliklar bilan amalga oshirilgani sababli ular formal semantik xususiyatga ega bo`lib, asl birliklarning ham shaklini, ham ma`nosini o`zgartiradi.

Tarjimada turli soʻzma-soʻz, gʻaliz birik, alarni qoʻllashdan qochish, uning oʻrniga adabiy , hamma tushunadigan , yorqin soʻzlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalaridan foydalaniladi. Leksik transformatsiyalar tarjima nazariyasida soʻzlarni kontekstda almashtirish deb yuritiladi.

Leksik- semantic tarjimaning besh turi mavjud. Fiterman A.M va Livetskaya T.R Tarjima oʻzgarishlarining uchta turini ajratib koʻrsatishadi.

Grammatik oʻzgarishlar (oʻzgartirishlar, oʻchirish va qoʻshimchalar, gaplarni qayta tuzish va almashtirish)



Umuman olganda, olimlarning har biri tarjima transformatsiyalarini tasniflab, ularni o'z fikricha turlarga bo'lib, bir xil hodisalar bilan shug'ullanadi. Leksik transformatsiyalar, ular kompensatsiya, antonomik tarjima, konkretlashtirish, sababni oqibat bilan almashtirish va umumlashtirish kabi usullarni nazarda tutadi.

1. Keng ma'noli so'zlar: ingliz tilidagi fe'llar odatda umumiy va noaniq ma'noda qo'llaniladi. Bu ayniqsa tarjimada yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan ingliz tilidagi "to get" ko'p ma'noli fe'lni tarjima qilishda kontekst albatta zarur bo'ladi. Chunki uning ma'nolari bir-biriga bog'liq bo'lmagan jihatlari ham mavjud. "The last leaf" asarida ham ko'p ma'noli so'zlarga duch kelamiz. Misol uchun, "There goes another" gapini so'zma-so'z tarjima qilsak, matnga mos ma'noni uchratmaymiz. Shuning uchun biz buni yaproqlarga nisbatan "yana biri daraxtdan to'kildi" deb muvofiqlashtiramiz. [1 b-3].

2. Umumlashtirish: tarjimada aksariyat hollarda asliyatda berilgan ma'noda tarjima tili normalrida ortiqcha hisoblangani bois ba'zi noaniqliklar umumlashtiriladi. Ingliz tilida odamning bo'yi, og'irligi aniq raqamlarda berilishi qabul qilingan. O'zbek tilida bo'y balandligi novcha, baland, daroz so'zlari, vazn esa og'ir yengil kabi aniqlovchilar bilan beriladi. O'zbek tilida turli raqamlar ortiqcha hisoblanadi. Mening asarimda ham "He was past sixty" gapida bu leksik transformatsiya kuzatilgan. Biz bu gapni "U qarib qolgandi" deb tilimizga moslashtiramiz. [1.b-4]

3. Antonomik tarjima : Bu degani ba'zi hollarda asliyatda qo'llanilgan so'z tarjimada antonym bilan almashtirilishini anglatadi, boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar gapda inkor so'zi bo'lsa, u tarjimada tushurib qoldiriladi. Masalan, "take it easy" - "tashvishlanaverma", "I don't want to cheat" - "men to'g'risini aytaman" deb tarjima qilinishi mumkin.

Asarimda "I have not been a good girl" gapini "men juda yomon qizman" deb tarjima qildim.

Misollar:

-I don't think you are very nice - Siz juda yomon insonsiz.



-I won't be gone a minute – Bir daqiqada qaytaman.

-Don't try to move-joyingda qimirlamay yot.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qaysi transformatsiya usuli qayerda qo'l kelishini belgilash tarjimonning mahorati va tarjibasiga bog'liq. Tarjimon ikki tilni mukammal bilishi bilan bir qatorda uning barcha sohalaridan xabardor bo'lishi juda muhim. So'z tanlashda uslub va janrning xususiyatlarini, imkoniyatlarini hisobga olish yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O. Henry. "The last leaf". America 1907.
2. I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. "Tarjima nazariyasi", Tafakkur bo'stoni, Toshkent-2012.
3. Mussayev. "Tarjima nazariyasi asoslari". Toshkent-2005.
4. Salomov.G' "Tarjima nazariyasiga kirish" Toshkent-1990.